



# SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## SIRDARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2024- yil  
yanvar-aprel



*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-aprel oylari)



Xizmatlar sohasida  
kichik tadbirkorlik  
ulushi -  
**52,8%**



Aholi jon  
boshiga  
xizmatlar  
hajmi –  
**2 406,0**  
ming so'm




Xizmatlar  
sohasidagi  
korxonalar va  
tashkilotlar  
ulushi - **66,3%**




**Xizmatlar sohasi bu** – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.


## Soni, birlikda




## Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (1-may holatiga ko'ra)



## Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (yanvar-aprel)




## Soni, birlikda




## Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari


(1- may holatiga ko'ra)




Soni, birlikda




Soni, birlikda




## Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari (yanvar-aprel)



## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-aprel oylari)



## Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi (2024- yil yanvar-aprel oylari)



<sup>1)</sup> Shu va keyingi o'rinlarda 2020-2023- yillar ko'rsatkichlari yillik yangilangan ma'lumotlar asosida keltirilgan


## Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-aprel oylari)

Hudud	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Sirdaryo viloyati <sup>1)</sup></b>	<b>2 203,9</b>	<b>100,0</b>	<b>108,5</b>
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	967,7	43,9	113,0
Shirin	30,8	1,4	114,9
Yangiyer	161,6	7,3	110,9
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	186,9	8,5	100,9
Guliston	93,8	4,3	103,3
Mirzaobod	110,9	5,0	105,0
Oqoltin	81,8	3,7	105,6
Sardoba	83,5	3,8	103,9
Sayxunobod	93,0	4,2	101,9
Sirdaryo	289,0	13,1	106,9
Xovos	104,9	4,8	102,9

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

## Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-aprel oylari)




## Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-aprel oylari)

Hajmi, ming so'mda O'sish sur'ati


Hudud nomi	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati
Guliston shahri	9 706,2	109,5%
Yangiyer shahri	3 358,9	108,1%
Sirdaryo tumani	2 103,6	105,0%
Shirin shahri	1 586,7	114,3%
Oqoltin tumani	1 463,2	104,1%
Mirzaobod tumani	1 374,7	103,1%
Boyovut tumani	1 343,5	99,0%
Sardoba tumani	1 186,2	102,5%
Guliston tumani	1 175,7	101,0%
Sayxunobod tumani	1 121,3	100,7%
Xovos tumani	1 022,9	101,0%

## Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-aprel oylari)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik korxonalar subyektlarining ulushi **52,8** foizni, shu jumladan, **21,9** foizni kichik tadbirkorlik va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

## Hududlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (2024- yil yanvar-aprel oylari)






## Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-aprel oylari)

Nomi	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>2 203,9</b>	<b>100,0</b>	<b>108,5</b>
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	132,7	6,0	116,6
Moliyaviy xizmatlar	695,8	31,6	103,4
Transport xizmatlari	310,2	14,1	116,1
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	288,8	13,1	112,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	64,0	2,9	108,6
Savdo xizmatlari	525,7	23,9	107,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	56,6	2,6	113,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	74,8	3,4	107,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	51,8	2,3	105,6
Ijara xizmatlari	38,4	1,7	112,6
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	52,0	2,4	111,3
Shaxsiy xizmatlar	44,4	2,0	105,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	17,8	0,8	104,3
Boshqa xizmatlar	139,7	6,3	114,5

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

## Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar-aprel oylari)




## Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar

(2024- yil yanvar-aprel oylari, mlrd. so'mda)

Guliston shahri	441,6
Sirdaryo tumani	54,4
Boyovut tumani	46,2
Oqoltin tumani	28,7
Sayxunobod tumani	25,5
Guliston tumani	23,2
Sardoba tumani	21,8
Xovos tumani	21,4
Yangiyer shahri	19,6
Mirzaobod tumani	7,5
Shirin shahri	5,9

## Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2024- yil yanvar-aprel oylari)



Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2024- yil yanvar-aprel oylarida 94,0** foizni tashkil etdi.


Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Guliston shahrining ulushi **63,5** foizni yoki **441,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **93,1 %**.

Guliston shahrida transport xizmatlari hajmi **77,5** mlrd. so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **115,2 %** ni tashkil etgan.


## Transport xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar-aprel oylari)



## Hududlar kesimida transport xizmatlari

(2024- yil yanvar-aprel oylari)





<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda

⚙️ O'sishi

## Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-aprel oylari)


**2024- yil yanvar-aprel oylarida** avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **288,8** mlrd. so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **13,1 %** ni tashkil etdi.



● **112,4%** Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari (2024- yil yanvar-aprel oylari)



● **112,5%** Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi (2024- yil yanvar-aprel oylari)



● **114,0%** Yo'lovchi tashish



● **112,8%** Yuk tashish

● **112,7%**

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

# Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari


## 2024- yilning yanvar-aprel

oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rt dan uch qismini, ya'ni **68,4** foizni tashkil etdi.



## Savdo xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar-aprel oylari)



## Hududlar kesimida savdo xizmatlari

(2024- yil yanvar-aprel oylari)



Hudud nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sishi (%)
Guliston shahri	131,0	110,9%
Sirdaryo tumani	104,8	112,0%
Yangiyer shahri	54,3	111,0%
Mirzaobod tumani	48,0	111,7%
Xovos tumani	38,9	111,6%
Boyovut tumani	36,6	81,9%
Sayxunobod tumani	30,4	93,0%
Guliston tumani	27,1	111,1%
Sardoba tumani	22,4	111,3%
Oqoltin tumani	22,1	122,7%
Shirin shahri	10,1	111,2%

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


■ Hajmi, mlrd. so'mda

○ O'sishi




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024- yilning yanvar-aprel** oylarida ularning ulushi **94,5** foizni tashkil etdi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-aprel oylari)



## Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar- aprel oylari)




<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd. so'mda

◆ O'sishi


## Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-aprel oylari)



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024- yil yanvar-aprel** oylaridagi ulushi **61,5 %** ni tashkil etdi.




## Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-aprel oylari)




## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-aprel oylari)

**2024- yilning yanvar-aprel** oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalarining xizmatlari salmoqli qismni egallaydi. Ularning ulushi **29,3** foizni tashkil etdi.




## Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-aprel oylari)






## Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar-aprel oylari)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **83,7** foizni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2024- yil yanvar- aprel oylari)




<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

**2024- yilning yanvar-aprel** oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **86,9** foiz.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar - aprel oylari)



## Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar - aprel oylari)




<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi

## Ijara xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar – aprel oylari)



## Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar – aprel oylari, mlrd. so'mda)




2020- yilning yanvar-apreliga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **22,5** mlrd. so'mga oshib, **38,4** mlrd. so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2024- yil yanvar-aprel** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **38,1** % ni tashkil etdi.




<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

## Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar – aprel oylari)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining 27,6 foizini tashkil etadi.

## Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar – aprel oylari)




<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd. so'mda

O'sishi

## Shaxsiy xizmatlar dinamikasi (yanvar-aprel oylari)



## Hududlar kesimida shaxsiy xizmatlar (2024- yil yanvar – aprel oylari, mlrd. so'mda)



**2023- yilning yanvar-aprel** oylariga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida shaxsiy xizmatlar hajmi **7,7** mlrd. so'mga oshib, **44,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida sataroshlik xizmatlari ulushi **79,3** % ni tashkil etdi.

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

**Transport xizmatlarining hajmi** amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

**Avtomobil transporti xizmatlariga** temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

**Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari** hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi** amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

**Telekommunikatsiya xizmatlari** bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

**“Ta’lim” seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

**Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi**, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

**Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni** ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

**Ijara xizmatlari** bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

**Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi** bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

**Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar** hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.